Surxondaryoda jurnalistlar ko’chat ekdi

Surxondaryoda jurnalistlar ko’chat ekdi
Surxondaryo viloyatida “dolzarb 40 kunlik” doirasida ko’chat ekib, yashil makonlar bunyod etish ishlari qizg’in davom etmoqda.
Viloyatda amalga oshirilayotgan bu ezgu ishni yoritayotgan bir guruh jurnalistlar, O’zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi viloyat bo’limi mutasaddilari, soha faxriylari “Surxon tongi” va “Zarya surxana” gazetalari birlashgan tahririyatining yangi binosida bo’lib, tahririyat xodimlari bilan bino atrofi va hovlisiga mevali hamda manzarali daraxt ko’chatlarini o’tqazdi.
Vohaning yetakchi nashri – “Surxon tongi” va “Zarya surxana” gazetalari birlashgan tahririyati Termiz shahri markazida zamonaviy yangi bino va bosmaxona bunyod etib, joriy yildan ikki qavatli binoda faoliyat yuritmoqda.
Binoning birinchi qavatida xorij uskunalari bilan jihozlangan bosmaxona, ma’naviyat va ma’rifat, tibbiyot xonalari, oshxona, turli sport jihozlariga ega zal va boshqa qo’shimcha xonalar barpo etilgan. Ikkinchi qavatda “Surxon tongi” va “Zarya surxana”

gazetalari joylashgan.
Ayni paytda “Surxon tongi” gazetasi 14 ming 583 nusxada, “Zarya surxana” gazetasi 2 ming 557 nusxada tahririyatning o’z bosmaxonasida chop etilayotir. Mu’jazgina issiqxona esa qishin-yozin xodimlarni turli sabzavotlar bilan ta’minlashga xizmat qilmoqda.
– Loyiha bo’yicha sport zal o’rnida dam olish xonasi, issiqxona o’rnida esa xodimlar o’zaro suhbat quradigan joy bo’lishi belgilangan ekan, – deydi bosh muharrir S.Norqobilov. – Qiymati bir xil bo’lgani uchun loyihaga o’zgartish kiritib, dam olish xonasiga turli sport anjomlari o’rnatdik. Hovlida esa ikki sotixcha yerga issiqxona qurdik. 20 tup limon, qator oralariga xar xil ko’kat, bodring, pomidor, tarvuz ekdik. Bo’sh vaqtlarimizda o’zimiz parvarishladik. Limon shu yilning o’zida hosil nishonalarini ko’rsatdi. Ziroatlarimiz ham yaxshi hosil berdi. Shu kunlarda issiqxonani qishki sabzavotlar ekishga tayyorlayapmiz. Sport zal hamisha ochiq. Bo’sh vaqtida istagan xodim bir muddat jismonan chiniqishi mumkin. Bugun bino atrofi va hovlisiga hamkasblarimiz bilan birgalikda qadayotgan rang-barang noyob daraxt ko’chatlarimiz ham yaqin yillarda bu yerni yam-yashil makonga aylantirib, o’zgacha ko’rk beradi.
Hududni yashillika burkagan jurnalistlar va faxriylar Prezidentimiz ilgari surgan “Yashil makon” umummilliy loyihasining ekologik muvozanatni saqlashdagi ahamiyati, mamlakatimizda ijodkorlarga qaratilayotgan e’tibor va yaratilayotgan sharoitlar haqida suhbatlashdi. Keksa avlod vakillari o’tmishdagi xotiralarini so’zlab berdi.
Jurnalistlar daraxt va buta ekish bo’yicha “dolzarb 40 kunlik” doirasida vohada amalga oshirilayotgan ishlarni keng yoritish barobarida bo’sh vaqtlarida o’zlari ham ko’chat ekib, bog’ yaratishda faol qatnashishga kelishib oldi.